

GUSTAV FLOBERNING “BOVARI XONIM” ROMANIDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA ESTETIK XOM XAYOLLIKNING FOSH ETILISHI

Nazarova Zamira Safarovna

Ilmiy rahbar: Ochilova Nafisa Usmonovna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Annotatsiya: Maqolada jahon adabiyoti serqirra qalam sohibi hisoblangan Gustav Floberning hayotи va ijodi hamda shoirning qalamiga mansub “Bovari xonim” asari , uning obrazlar tizimi, asardagi bosh qahramonlarning harakter xususiyatlari, boshdan o'tkazgan kechinmalari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Realizm, Gyustav Flober, “Bovari xonim”, burjua muhit, Emma, “bovarizm”, qahramon.

Abstract: The article examines the life and work of Gustave Flaubert, considered a master of world literature, as well as the poet's work “Madame Bovary”, his system of images, the character traits of the main characters of the work, and his experience is discussed in detail.

Key words: Realism, Gustave Flaubert, “Madame Bovary”, bourgeois milieu, Emma, “Bovarianism”, hero.

Аннотация: В статье рассмотрены жизнь и творчество Гюстава Флобера, считающегося мастером мировой литературы, а также произведение поэта «Госпожа Бовари», его система образов, черты характера главных героев произведения, и его опыт подробно обсуждается.

Ключевые слова: Реализм, Гюстав Флобер, «Госпожа Бовари», буржуазная среда, Эмма, «боварианство», герой.

XIX asr fransuz realizmi rivojlanishining ikkinchi bosqichi Flober nomi bilan bog‘liq. Fransuz yozuvchisi Gyustav Flober 1821-yilda Fransiyaning Ruan shahrida tavallud topdi. U dastlab Parij universitetining huquqshunoslik fakultetini o‘qib tugalladi. Ammo yoshlidan adabiyotga bo‘lgan qiziqishi tufayli hikoya, qissa yoza boshladi. Yozuvchi asosan 1857-yilda yozilgan “Bovari xonim” romanı bilan shuhrat qozondi. Flober rus yozuvchilari I. Turgenev, Tolstoy bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘lgan edi. Ijodi Rossiya dagi adabiy jamoatchilik diqqatini ham o‘ziga tortdi. Yozuvchi o‘ziga xos asarlari bilan jahon adabiyotida realizm taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shti. Flober badiiyatining fransuz va jahon adabiyotiga ta’siri katta. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar uni Balzakning realistik an’analari davomchisi deb hisoblaydi. “Bovari xonim” romanı esa Floberning dunyoqarashi va estetik tamoyillarini aks ettiruvchi ilk muvaffaqiyatli asari sifatida jahon adabiyotidan munosib o‘rin egalladi. Yozuvchi ushbu asar ustida besh yil ishlagan edi. 1851-yilning kuzida Flober “Bovari xonim” romanining birinchi syujetini yaratdi. Roman ilk bora Parijdagi Revue adabiy jurnalida 1856-yil 1-oktabrdan 15-dekabrgacha nashr etildi. Roman nashr etilgandan so‘ng yozuvchi axloqni buzish haqida asar yozganlikda ayblandi va jurnal muharirri bilan birgalikda 1857-yil yanvar oyida sudga tortildi. Ammo asarning katta shon-shuhrati uni ommalashtirdi va 1857-yil 7-fevraldagagi oqlov romanni o‘sha yili alohida kitob sifatida nashr etishga imkon berdi. Flober u tasvirlayotgan manzara – burjua

dunyosining manzarasi uning umidsizligi bilan ifodalanashini aytib o'tgan edi. Roman ustida ishlayotgan Flober "o'ylaymanki, kitobxonlar birinchi marta o'z qahramonini masxara qiladigan kitobni mutolaa qiladi", deb yozadi. Fransuz ayolining ziddiyatlarga to'la hamda zerikarli, qoniqarsiz va nihoyat fojiali hayotini tasvirlgan asar – «Bovari xonim» asari 1856 yilda nashr etildi. Asar Gustav Floberning ilk romani bo'lib, chop etilgan yiliyoq turli qarshiliklarga uchradi. Asarga axloqsizlikni targ'ib etish vositasi sifatida qaraldi va uni xuddi shu mazmunda qoralab chiqishdi. Bu esa aks ta'sir ko'rsatib, salbiy ma'noda bo'lsa-da romanning shuhuratini keng tarqalishiga olib keldi. Asarning realizm yo'naliishiga qo'shgan hissasi uning adabiyot tarixidagi o'rnini mustahkamladi. Romanning bosh qahramoni – shifokorning rafiqasi Emma Bovari edi. U axloqsiz yashaydi va hashamat ketidan quvib, qarzga botadi. Roman syujeti juda sodda va hattoki qo'rinchli bo'lsa ham, romanning asl qiymati har bir tafsilotlar orqali oshib boraveradi. Shuni aytish kerakki, Flober yozuvchi sifatida har bir asarni ideal darajasiga yetkazishi bilan tanilgan edi, har bir syujet, qo'llanilgan so'z doim adabiyotshunoslarni hayratga soladi. Yozuvchi kichik burjua muhitining vahshiyigini Emmaning mistik umidlari va yuksak ideallari orqali atrof-muhitga qarshi isyon qilishi bilan mohirona ifodalaydi. Emma yozuvchining hayotga bo'lgan da'vosi sifatida romanning boshqa qahramonlaridan yuqoriga ko'tarilib boradi. Floberning "Bovari xonim – bu men" so'zları hammaga ma'lum. Emma Bovari obrazida burjua domiga tushgan romantik qahramon fosh etiladi. Shu bilan birga, muallifning qahramonga yaqinligi, Floberning obyektivligiga qaramay, undagi mehr-shafqatni bildiradi. Keyinchalik, fransuz adabiy tanqidida "bovarizm" atamasi ishlatib kelindi. Bu odamning o'zi va uning dunyodagi o'rnii haqidagi noto'g'ri, buzilgan g'oyasi tasvirini anglatdi. Romanda adabiy naturalizmning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Floberning odamga nisbatan shubha bilan qarashlari uning asarlarida ijobjiy qahramonlar yo'qligida namoyon bo'ldi. Bugungacha Flober Fransiyaning uch buyuk realistlaridan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Fransuz realizmi taraqqiyotida Floberning faoliyati Balzak va Stendalning asarlari singari muhim bosqichdir. 2007-yilda taniqli mualliflar orasidagi so'rvnomaga ko'ra, "Bovari xonim" romani o'z davrining eng katta ikki romanidan biridir. Turgenev bir vaqtlar romanni "butun adabiy dunyodagi eng yaxshi asar", deb aytib o'tgan edi. Har qanday asarning buyukligini isbotlovchi omillardan biri uning vaqt o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmasligidadir. Zamon o'zgargani sayin, asarning ham turli talqinlari tug'ilaveradi... O'z davrida asarni illatlarni yoyishda ayblashgan bo'lsa, ma'lum vaqt o'tib, burjuaziyaning tanqidi sifatida ko'ra boshlashdi. Keyinchalik esa hayot realligi va kitobiy tasavvurlar qarama-qarshiliqi, romantizm davri tugab, realizm davri boshlanayotganiga alohida urg'u berila boshlandi. Yigirma birinchi asr insonlari esa asarni jamiyatdagi tartiblar tomonidan kishanlangan ayol tomonidan turib, tahlil eta boshladilar. Qarashlar o'zgargani, insoniyat o'zini yangilab borgani sayin asar mazmuni yangi qirralardan turib kashf etilmoqda.

Roman asosida bugungi kungacha Jan Renuar, Vinsent Minnelli, Aleksandr Sokurov, Klod Shabrol va boshqalar tomonidan filmlar suratga olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bovari xonim, T., 1976. Ad.: Reizov B. G., Tvorchestvo Flobera, M., 1955.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/fransuz-klassikasi-bovari-xonim>.